

ISSN 2181-9580

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTLARI
ILMIY-NAZARIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

SCIENTIFIC BULLETIN
OF THE TASHKENT
STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

2022

12-son

*Jurnal Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2014-yil
30-iyulda №02-00175 raqam bilan ro'yxatga olingan.*

**CHET TILINI O‘QITISH JARAYONIDA KASBIY KOMMUNIKATIV
OMILKORLIKNING MEZONLARI BILAN BIRGALIKDA
KOMMUNIKATIV METODIKADAN FOYDALANISHNING MUHIM
OMILLARI VA SAMARADORLIGI**

**Nizamov G‘.M. - Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik
va biotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi**

Annotatsiya. Ushbu maqola kasbiy kommunikativ omilkorlikning shakllanganlik mezonlar bilan birgalikda kasbiy kommunikativ omilkorlikni shakllantirish jarayonini tashkil qilish uchun kommunikativ metodikadan foydalangan holda chet tilini o‘rganish samaradorligi haqida.

Kalit so‘zlar: o‘qitishning vaziyatni namoyish etish, tushuntirish va izohlash, mashqlarni va o‘quv materialini nutqda amalda qo‘llash va tashkil qilish, chet tilini o‘rganish, videofilm, ovoz yozuv, multimedia, modellashtirish.

**ВАЖНЫЕ ФАКТОРЫ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
КОММУНИКАТИВНОЙ МЕТОДОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ
ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ ВМЕСТЕ С КРИТЕРИЯМИ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ**

**Низамов Г.М. – преподаватель Самаркандский государственный
университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии**

Аннотация. В данной статье речь идет об эффективности изучения иностранного языка с использованием коммуникативной методики для организации процесса формирования профессиональной коммуникативной компетенции в совокупности с критериями формирования профессиональной коммуникативной компетенции.

Ключевые слова: демонстрация, объяснение и интерпретация учебных ситуаций, практическое применение и организация упражнений и учебного материала в речи, изучение иностранного языка, видеофильм, запись голоса, мультимедиа, моделирование.

**IMPORTANT FACTORS AND EFFICIENCY OF USING
COMMUNICATIVE METHODOLOGY IN THE PROCESS OF TEACHING A
FOREIGN LANGUAGE, TOGETHER WITH THE CRITERIA OF
PROFESSIONAL COMMUNICATIVE EFFECTIVENESS**

**G. M. Nizamov – The teacher of Samarkand State Veterinary Medicine of
Livestock and Biotechnology University**

Annotation. This article is about the effectiveness of learning a foreign language using the communicative methodology to organize the process of formation of professional communicative competence together with the criteria for the formation of professional communicative competence.

Key words: demonstration, explanation and interpretation of teaching situations, practical application and organization of exercises and educational material in speech, learning a foreign language, video film, voice recording, multimedia, modeling.

Kasbiy kommunikativ omilkorlikni shakllantirish jarayonini tashkil qilish uchun kommunikativ metodikadan foydalanish muhim. Shu munosabat bilan ta'lim jarayonini kommunikativ deb atash imkonini beradigan quyidagi xususiyatlarga rioya qilish zarur: chet tili ta'limi; real muloqot; shaxsiy ma'no; har qanday harakatning motivlanganligi; ma'noli nutq faolligi; muloqotning boshqa nutqiy faoliyat turlari bilan aloqasi; vaziyat o'zaro munosabatlar tizimi sifatida; funkcionallik; yangilik va evristiklik; mazmunlilik; muammolilik. Talabalarga chet tilini o'qitish Davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq ravishda tashkil etiladi (1-ilova).

Kommunikativ omilkorlikning shakllanganligi quyidagi mezonlar bilan tavsiflanadi: atrofdagilar bilan aloqaga kirishish istagi bilan, muloqot vaziyatini baholay olish bilan, kommunikativ harakat borishining o'zini tashkil etish qobiliyati bilan, empatiyani, refleksiv hatti-harakatni, kasbiy mavzularda suhbat olib borish qobiliyatini namoyon etish bilan.

Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligiga nisbatan talablarga kelsak, shuni qayd etish kerakki, agronomiyachi kasbiy yo'nalishga ega matnlarni eng ko'p tarqalgan tillardan birida o'qish va tarjima qila olish bilan belgilanadigan kommunikatsion tayyorlikka ega bo'lishi lozim.

Zamonaviy didaktikada o'qitish tamoyillarining ko'plab tasniflari mavjud bo'lib (V.V. Davidov) [1, 2, 3], ular har bir o'quv fani bo'yicha o'quv-tarbiya jarayonining butun siklini tiklaydi. Fanlardan har biri bu tamoyillarning o'ziga xosligi va boshqa xususiyatlariga asoslanib, ularni o'zicha amalga oshiradi.

Biz o'tkazayotgan tadqiqot nuqtai nazaridan, chet tilini o'qitishning talabalarni o'qitishga xos bo'lgan didaktik tamoyillarini kasbiy kommunikativ omilkorlikni shakllantirish vositalari sifatida ko'rib chiqamiz.

Chet tilini o'qitish didaktik tamoyillari kasbiy kommunikativ omilkorlikni shakllantirish vositalari sifatida

T/b	Tamoyil	Mohiyati
-----	---------	----------

№		
1.	Kommunikativ yoʻnalganlik	Chet tilini oʻqitish talabalarni ogʻzaki (tinglab tushunish, soʻzlash) va yozma (oʻqish va yozish) kommunikatsiyaga, yaʼni oʻrganilayotgan tilda muloqotga jalb etgan holda tashkil etilishi lozim.
2.	Darajalangan yondashuv (chet tilini oʻqitishda)	Darajalash umumlashtirishning har xil darajalarida amalga oshiriladi; oʻqitishda boʻladablik bilan ajratish oʻtkaziladi: 1) ogʻzaki nutqni (inglab tushunish, soʻzlash) va yozma nutqni (oʻqish, yozish); 2) ogʻzaki nutq ichida (soʻzlash va tinglab tushunishni oʻrgatishda), soʻzlashni ichida (monologik va dialogik nutqni oʻrgatishda) va yuqorida koʻrsatilgan har bir shaklning ichida – tayyorlanilgan va tayyorlanilmagan nutqni; 3) oʻqishni ichida (ovoz chiqarib va ovoz chiqarmasdan oʻqishni oʻrgatishda) va ovoz chiqarmasdan oʻqishni oʻrgatishda (mazmunni umumiy qamrab olish bilan va toʻliq tushunish bilan oʻqishni); 4) yozuv ichida (grafika va orfografiyani; yozma bayonni va xizmat yozishmalarini oʻrgatishda).
3.	Onglilik	Oʻrganilayotgan hodisalarni aniq maqsadga qaratilgan idrok qilish va tushunish, ularni ijodiy qayta ishlash va talabalar muloqotini bajarishda ishlatish, yaʼni nutqiy muloqotda ushbu hodisaning funksiyasini aniqlab olishda.
4.	Faollik	Taʼlim oluvchining oʻquv jarayonida faol qatnashishi, doimiy “olgʻa borish”.
5.	Koʻrgazmalilik	Talabaga til materialini tushunish, oʻzlashtirish va ishlatishda yordam berish maqsadida til materialini va uning nutqda qoʻllanishini maxsus tashkil qilgan holda namoyish etish.
6.	Oʻqitishning tushunarli va osonligi	Talabalarning imkoniyatlari darajasida oʻqitish – chet tilini oʻrganishda yengib oʻtib boʻlmaydigan yoki yengib oʻtish murakkab boʻlgan qiyinchiliklarsiz (tushunarlilik material, uning tashkil qilinishi va u bilan ishlash metodikasi bilan taʼminlanadi).

Didaktik tamoyillarni oʻrganishda biz ilmiylik, tadrijiylik va tizimlilik tamoyillarini koʻrib chiqmaymiz, chunki ilmiylik hamma tamoyillarda boʻlishi kerak; tadrijiylik va tizimlilik esa turli oʻquv-uslubiy majmualarning mualliflari tomonidan belgilanadi.

Chet tilini oʻqitish maqsadlarini hisobga olib, talabalarga chet tilini oʻqitishda yetakchi tamoyil deb *kommunikativ yoʻnalganlik* tamoyilini aytish kerak. Bu tamoyil chet tili boʻyicha oʻquv-tarbiya jarayonining barcha tarkibiy qismlarini amalda belgilab beradi, shuning uchun kommunikativ yoʻnalgan oʻqitish va hatto kommunikativ uslub yoki oʻqitish yoʻnalishi haqida gapirilishi ham bejiz emas [4]. Kommunikativ yoʻnalganlik tamoyili ham oʻqitish mazmunini belgilab beradi – tilshunoslik materialini tanlash va tashkil qilishni, muloqot sohasi va vaziyatlarini aniqlashtirishni (muloqotga kirishish, ogʻzaki va yozma shaklda muloqot qilish uchun qaysi kommunikativ malakalar zarurligini; tilning kommunikativ funksiyasini egallashni qanaqa vositalar yordamida taʼminlash mumkinligini), ham muloqotni amalga oshirish uchun oʻqitishni turli tashkiliy shakllardan, shu jumladan har xil, rolli va ishbilarmonlik oʻyinlaridan foydalanib tashkil qilish zaruratini oʻrtaga qoʻyadi. Bu

tamoyil mulohotni osonlashtiradigan shart-sharoitlarga amal qilishni va maxsus o'quv topshiriqlarini tuzishni talab qiladi. Bunda kommunikativ yo'nalganlik tamoyilini amalga oshirish qoidalari quyidagilardir: vaziyatlarni tanlab olish, mulohotda har bir kishining ishtiroki, topshiriqlarning kommunikativligi, ko'p martalilik va yangilik, mulohot uchun qulay sharoit.

O'qitishni *darajalash* tamoyilini amalga oshirish qoidalari quyidagilardir: nutq faoliyati har bir turining o'ziga xosligini hisobga olish, har bir shaklning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda monologik va dialogik nutqni o'rgatish, nutq birliklarida til jihatlarini maromiga yetkazish, tinglab tushunish uchun nutq va ovoz yozuvidan foydalanish, o'qishning har xil turlarini har bir shaklning xususiyatlarini hisobga olgan holda o'rgatish, xizmat yozishmalaridan foydalanish.

O'qitishda *onglilik* tamoyilini amalga oshirish o'zlashtirilayotgan materialni anglab yetish va u bilan ishlash uchun har xil vositalardan foydalanishdan; boshqa vositalar "ish beradigan" o'rinlarda tarjimadan kechish, til bilan mustaqil ishlash usullarini shakllantirish, talabalarining tilni egallashdagi yutuqlarini ko'rsatish. O'qitishda onglilikka erishish faollik bilan chambarchas bog'liq.

Chet tilini o'rganishda *faollik* tamoyili muhim o'rinlardan birini tutadi, chunki tilni egallash talabalarining o'quv jarayonidagi faol ishtirokisiz mumkin emas. Biroq faollik tilni egallashdagi muvaffaqiyatlarga bog'liq. Agar talaba tilni egallashda (tinglash, so'zlash va yozishda) muvaffaqiyatlarga erishsa, unda u qiziqish bilan o'qiydi, tilni o'rganadi va faollik ko'rsatadi. Ye. V. Zaysevaga ko'ra, faollik tamoyilini amalga oshirish qoidalari quyidagilardir: o'qish motivlarini saqlab qolish, talabalar faolligini rag'batlantirish uchun mashg'ulotning me'yordagi sur'atidan foydalanish, pedagogning nutqiy faolligini qisqartirish hisobiga ulardan har birini faol nutq so'zlash-fikrlash faoliyatiga jalb qilish, his-tuyg'ularga ta'sir ko'rsatish, o'yin, musobaqa jihatlarini qo'llash; pedagogning manfaatdorligi.

Adabiyotlar

1. Витлин Ж.Л. Эволюция методов обучения иностранным языкам в XX веке // Иностранные языки в школе. - 2001.- № 2. - С.23-29.
2. Вихерт Ю.И. Иностранные языки в вузах Наркомтяжпрома СССР. М., 1932.
3. Вихерт Ю.И. Цели и задачи преподавания иностранных языков. //Материалы конференции-курсов преподавателей иностранных языков. М.,1930.
4. Вятютнев, М.Н. Коммуникативная направленность обучения русскому языку я зарубежных школах / М.Н. Вятютнев // Русский язык за рубежом. - 1977. - № 6. - С. 38-45.

**TALABALARDA IJTIMOIIY TARMOQLAR TAHDIDLARI TA'SIRI
SHAROITIDA VIRTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING
IJTIMOIIY - PSIXOLOGIK JIHATLARI**

Sharapova S.D. - Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyot tarixiga nazar solsak, bu vaqt davomida insonning ongiga ta'sir ko'rsatishning usul va vositalari o'zgarganligi sababli, uning xarakteri ham "zamonaviylashgan"ligini kuzatish mumkin. Chunki uning ta'sir doirasi bilan birga yo'naltirilganligi ham kengaygan va natijada ulardan aniq bir maqsad sari foydalanish uchun aniq obyekt tanlanmoqda. Obyekt bo'lib alohida shaxs, guruh (jamo'a yoki etnik birlik), aholining ma'lum tabaqasi (yoshlar, ziyolilar, tadbirkorlar va boshqalar) tanlanib, predmeti sifatida intellektual, emotsional-irodaviy sohalar tanlanishi mumkin. Ushbu maqolada, talaba yoshlar hayotidagi ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati va ular natijasida yuzaga keladigan turli muammolar, jumladan, virtual madaniyatni shakllantirish va psixologik muammolalarning kelib chiqish sabablari haqida fikr va mulohazalar qilinadi.

Kalit so'zlar: talabalar, ijtimoiy tarmoq, virtual hayot, madaniyat o'zgarishi, tahdidlar, psixologik jihatlar, virtual madaniyat, ijtimoiy hayot, obyekt, taraqqiyot.

**SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF
VIRTUAL CULTURE IN THE CONTEXT OF THE IMPACT OF THREATS
OF SOCIAL NETWORKS IN STUDENTS**

Sharapova S.D. - The teacher of Gulistan state university

Annotation. A person's character has been "modernized" as a result of the fact that throughout this time the means and methods of influencing a person's awareness have changed, according to the history of socio-cultural development. Because of the expansion of both its field of influence and its orientation, a certain object is being picked to be used in order to achieve a particular aim. A distinct individual, group (collective or ethnic unit), a particular segment of the population (young, intellectuals, entrepreneurs, etc.), and intellectual, emotional, and volitional domains can all be chosen as the object and topic of their work. This article offers ideas and reflections on the significance of social media for student life as well as potential issues that arise as a result of them, including the formation of a virtual culture and the causes of the occurrence of psychological problems.

Keywords: students, social network, virtual life, culture change, threats, psychological aspects, virtual culture, social life, object, development.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ВИРТУАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ В КОНТЕКСТЕ ВОЗДЕЙСТВИЯ УГРОЗ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА СТУДЕНТОВ

**Шарапова С.Д. – преподаватель Государственный университет
Гулистана**

Аннотация. Рассматривая историю социокультурного развития, можно заметить, что в связи с тем, что за это время изменились методы и средства воздействия на сознание человека, "модернизировался" и его характер. Потому что вместе со сферой его влияния расширилась и его ориентация, и в результате выбирается конкретный объект для их использования в достижении определенной цели. В качестве объекта может быть выбран отдельный человек, группа (коллектив или этническая единица), определенный класс населения (молодежь, интеллигенция, предприниматели и т.д.), а в качестве их субъекта - интеллектуальная, эмоционально-волевая сферы. В этой статье высказываются мнения и размышления о важности социальных сетей в жизни студенческой молодежи и возможных социальных проблемах, возникающих в результате их использования, включая формирование виртуальной культуры и причины возникновения психологических проблем.

Ключевые слова: студенты, социальная сеть, виртуальная жизнь, изменение культуры, угрозы, психологические аспекты, виртуальная культура, социальная жизнь, объект, развитие.

Endilikda tahdidlar maqsadiga ko'ra insonni ma'lum sohalariga yoki jamiyatning aniq sathlariga ta'sir ko'rsatish uchun amal qilmoqda. Ular tabiiy yoki sun'iy bo'lishidan qat'iy nazar, obyektning funksional holatini izdan chiqarishga qaratilgandir. Tahdidlarni inson faoliyatining turli sohalariga, guruh(jamoa)ning ahilligiga yoki faoliyatiga qaratilganligini inobatga olsak, ularni o'z vaqtida aniqlash va psixologik profilaktika tizimini yaratish dolzarb ijtimiy-psixologik mavzudir.

Har bir davlat o'z hududida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashni milliy siyosatining ustuvor yo'nalishi deb belgilab, uni amalga oshirish uchun mavjud resurslardan foydalanadi. Bunda himoya mexanizmini ishlab chiqishni ham nazarda tutib, aholini ichki va tashqi tahdidlardan himoyasini amalga oshiradi. Shu bois, fanda "Tahdidlar nazariyasi", "Psixologik himoya konsepsiyasi" kabi ta'limotlar yaratilgan bo'lib, psixologik barqarorlik ta'minlash muhim vazifa sifatida e'tirof etiladi [1]. Ularning qatorida yoshlarda turli tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishni ijtimoiy-psixologik jihati alohida o'rin tutadi. Tahdid, turli subyektlarning qarama-qarshiligidan kelib chiqadigan keskinlikning yanada yuqori darajasi hisoblanib, ijtimoiy-psixologik jihatdan ularning o'z vaqtida

diagnostikasini amalga oshirish va korreksiyasini o'tkazish, aniqlash, shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini himoya qilishda muhim o'rin tutadi. Tahdid, bu shaxs, jamiyat yoki davlatga yetkazilgan ma'naviy, moddiy yoki boshqa zarar hisoblanib, bugungi kunda tahdid va xavflar sonining oshib borilayotganligi sababli, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish dolzarb ijtimoiy-psixologik mavzu sifatida e'tirof etilmoqda.

Yu.Noskovning fikricha: tahdid inson yoki jamiyatning joriy faoliyati va rivojlanishining izdan chiqarishga, buzishga olib keluvchi shart va omillarning majmuidir [2]. Ijtimoiy-psixologik jihatdan biron-bir tahdidning mazmun-mohiyatini ochib berish uchun ular haqida axborotga ega bo'lish zarur. Tahdidning u yoki bu tizimga ta'sir ko'rsatishi (ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida) ma'lum tuzilma namunasida kechib, u shakl jihatidan har qanday harakat tuzilmasiga mos kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, G'arbda vujudga kelgan "human security" ta'limoti so'nggi paytlarda ijtimoiy munosabatlarda ifodalanayotgan ijtimoiy-psixologik muammolarni hal qilishning muqobil vositasi sifatida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy manbalarning nazariy tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda tahdidlarning barcha xususiyatlarini inobatga olgan holda, quyidagi tartibda ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq:

11. Xalqaro terrorizm;
12. Diniy ekstremizm;
13. Narkotrafik;
14. Qurol-yarog' va o'q-dorilar, radioaktiv va yadroviy moddalar kontrabandasi;
15. Kompyuter firibgarligi;
16. Transplantasiya uchun inson tana a'zolarining noqonuniy savdosi;
17. Qimmatli qog'ozlarni qalbakilashtirish va noqonuniy daromadlarni legallashtirish;
18. Transmilliy uyushgan jinoyatchilik;
19. Noqonuniy migratsiya;
20. Missionerlik va harakati.

Immunitet – tibbiy tushuncha bo'lib, u organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashga, turli tashqi ta'sirlardan, infeksiyalardan himoya qilishga qodir bo'lgan reaksiyalar majmuini ifodalaydi. Soddaroq tarzda bayon etganda, immunitet, bu organizmning o'z-o'zini turli kasalliklardan himoya qila olish qobiliyatidir. Ilmiy muloqotda immunitet tushunchasi turli kontekstlarda qo'llaniladi, jumladan, diplomatik immunitet, deputatlik immuniteti kabilar shular jumlasidandir. Bizning tadqiqotimizda mafkuraviy immunitet konsepti, shaxs, ijtimoiy guruh, jamoa va jamiyatni turli zararli g'oyalarning ta'sirlariga tushmaslik holatini ifoda etadi.

Mafkuraviy immunitetning ijtimoiy-psixologik indikatorlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

- mafkuraviy immunitet, insonning jismoniy, ma'naviy va psixologik kamolotga erishish jarayonida turli ijtimoiy-institutlar tomonidan shakllantirib boriladi;

- mafkuraviy immunitet, dinamik mazmun kasb etishi jihatidan har bir avlod uchun alohida mazmun kasb etib, guruh, jamoa va jamiyat manfaatlarini himoya etadi;

- mafkuraviy immunitet g'oyaviy immunitetni shakllanganligidagina akkumulyativ mazmun kasb etadi;

- mafkuraviy immunitet tizim sifatida shakllansa - ichki va tashqi tahdidlarning ta'siriga tushmaslik holati ta'minlanadi.

Shu bilan birga obyektning ijtimoiy-psixologik diagnostikasini hamda profilaktikasini amalga oshirib, xavflarni zararlantirish tadbirlarini joriy etish, muhim hisoblangan usul va vositalarni o'z vaqtida maqsadli belgilab olish imkoniyatini yaratadi. Masalan, yo'naltirilganligi bo'yicha biron bir xavf inson va jamiyatga qaratilgan bo'lsa, bunda birinchi navbatda, himoya usuli, vositalari, himoyani amalga oshirish tartibi, muhlati kabilarni belgilash lozim bo'ladiki, oxir-oqibatda mafkuraviy immunitet tizimini shakllantiradi. Bu, o'z navbatida, mafkuraviy immunitetni shakllantiruvchi institutlar faoliyatining mahsuldorligini ta'minlaydi.

Ijtimoiy-psixologik jihatdan ma'naviy va polimorfizm tizimlari ijtimoiy-madaniy munosabatlarni, jamiyatning ijtimoiy va madaniy tizimini amal qilishi uchun, tizimosti tarzida ishtirok etadi. Chunki har qanday g'oya turli siymolar, axborotlar vositasida, qahramonlarning hissiy kechinmalarini ta'siri asosida yoki yordamida moddiylashtiriladi. Garchi, ma'naviy tizim, turli tarixiy davrlarda bo'lib o'tgan ilmiy munozaralarning mavzusi bo'lib kelganligini va bugungi kunda, ya'ni ijtimoiy, madaniy globallashuv jarayonida milliy ma'naviyatni hammabop "ma'naviyat shakli" (model tarzida) vositasida turli axboriy kanallar orqali siqib chiqarish avj olgan davrda, milliy ma'naviyatni saqlab qolishda "ma'naviy immunitet"ni shakllantirish amaliy mazmun kasb etadi.

Shu bois yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish maqsadida:

- tahdidlar va ularningdestruktiv funksiyalari;
- individual ma'naviyat va uning funksional tavsifi;
- axborotlarni saralashning psixotexnikasi;
- axborot madaniyatining komponentlari;
- xabardagi psixologik komponentlar haqida psixologik ma'rifat darajasida ma'lumotlar berish lozim [3].

Kompyuter bilan ishlash ongning rivojlanishi, uni tizimlashtirish, aniqligi va jiddiyligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ongning bunday yangi darajasini "algoritmik" deb

ataladi. Uning o'ziga xos jihatlari o'z xarakteri tizimini rejalashtira olish, kerakli ma'lumot qidiruvini tashkil qilish, obyekt va jarayonlarning axborot modellarini yaratish hisoblanadi. Kompyuter, boshqa axborot texnikasi va kompyuter texnologiyalarini qo'llash vazifalarining keng ko'lamini yechishga, moddiy va energetik resurslarning tejalishiga qulay sharoit yaratib beradi. Masalan, pochta tarqatmalarini (korrespondensiyalarni) oddiy yo'l bilan jo'natish o'rniga elektron aloqa kanallarini qo'llash qator afzalliklarga egadir. Bundan tashqari, yangi axborot texnologiyalarini qo'llash muddatlarining qisqarishi va intellektual jarayonlar bajarilishi sifatining oshishiga ham olib keladi. Xususan, boshqaruvga oid qarorlarni qabul qilishda, turli kasalliklarni tashxislash va davolashda, ta'lim sohasida ma'lumotlarni yetkazish va boshqalar.

Xulosa qilib aytish kerakki, mamlakatimizni taraqqiy toptirish, yuksaltirishda yoshlarning tarbiyasi va salohiyati o'ta muhim obyektiv qonuniyatdir. Endi faqat va faqat shu yurti, shu elni sevuvchi, mamlakat rivojiga xizmat qiluvchi, uning moddiy va ma'naviy qadriyatlariga hurmat ko'zi bilan qarovchi va ma'lum ma'noda uni targ'ib qiluvchi fidoyi vatandoshlarimizni tarbiya qilish mamlakatning har bir fuqarosining ayniqsa, pedagogika sohasida faoliyat ko'rsatuvchi fuqarolarimizning eng asosiy maqsadiga aylanishi o'ta muhim masaladir. Nazoratsiz qolgan yoshlarimiz esa internet orqali "virtual madaniyat" iskanjasiga tushib qolmoqda. Shuning uchun ham madaniy hayotni yuksak g'oyalar, ijtimoiy ahamiyatli sifatlar va estetik takomilga yetgan obrazlar bilan to'ldirib borish joizdir. Bizningcha, bu pozitiv o'zgarishlarda jahon madaniyati va milliy ma'naviy madaniyat o'zining barcha shakl va mazmuni bilan muhim rol uynaydi.

Adabiyotlar

1. Rajabov H.I "Globalashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari T.: "Fan va texnologiya" 2020 yil, B-207
2. Tashmetov, T. X. (2020). Prospects for relying on the basis of the national idea in protecting young people from hard and harmful ideas. International Journal For Innovative Engineering and Management Research, 9(11), 81-86.
3. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya T.: "Movaraunnahr", 2016. -B.5.
4. <https://iiv.uz/news/ijtimoiy-tarmoq-undan-siz-qanday-foydalanisiz>